

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
UZOQ SHARQ VA JANUBIY OSIYO TILLARI FAKULTETI
JANUBIY OSIYO TILLARI KAFEDRASI

Asosiy o'rganilayotgan til

“HINDIY TILI”

Bakalavriaturaning
I kursi I - II semestrlari uchun
ma'ruza matni

kafedra majlisining
21.05.2008y. sanadagi
№ _____ sonli bayonnomasida
muhokama qilinib tasdiqlangan.

Soatlar hajmi - I – II semestr
Ma'ruza - _____
Amaliy mashg'ulot - _____

Tuzuvchi: kat.o'qit. Rahmatov B.R.
Taqrizchi: kat.o'qit. Sodikova M. K

TOSHKENT - 2008

KIRISH

Ushbu “Asosiy sharq tili (hindiy)”dan ma’ruza matnlari Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti bakalavrlilik 1- kurs talabalari uchun mo’ljallangan bo’lib, ular mazkur kursning o’quv rejasiga binoan tuzilgan.

Ma’ruzalarning fonetika bo’limida hindiy tili unli, undosh harflari, alifbo va yozuv to’g’risida ma’lumot berilgan.

Boshqa ma’ruzalar grammatikaning turli bo’limlariga tegishli bo’lib, ular talabalarda hindiy tilining grammatikasining tegishli boblari bo’yicha chuqur bilim, mahorat va ko’nikmalar hosil qilishga qaratilgan.

Talabalar tomonidan mazkur bilimlarni yanada mukammalroq o’zlashtirilishi uchun ularga tegishli adabiyotlardan mustaqil holda foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu maqsadda har bir ma’ruzaga tegishli adabiyotlar berilgan.

Ushbu ma’ruzalarni o’zlashtirish samaradorligini oshirish maqsadida turli hil o’quv texnika vositalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ma’ruzalar ro’yhati.

1. Fonetika.
2. Morfologiya. Asosiy so’z turkumlari. Ot. Sifat. Son. Olmosh.
3. Morfologiya. Fe’l.
4. Yordamchi so’z turkumlari.
5. Sintaksis. Aniqlovchi. To’ldiruvchi. Hol.
6. Oddiy kelasi zamon fe’li. Shart ergash gapli qo’shma gaplar.
7. Sodda tugal sifatdosh. Tugal o’tgan zamon.
8. Tugal hozirgi zamon.
9. Uzoq o’tgan zamon.
10. Davomli sifatdosh. Prosessiv sifatdosh. Hozirgi zamon davom fe’li. O’tgan zamon davom fe’li.
11. Qo’shma fe’llar. Fe’l tarkibli qo’shma fe’llar. Qo’shma potensial fe’llar.
12. Qo’shma intensiv fe’llar.
13. Sifat darajalari.

I - MA’RUZA FONETIKA

Ma’ruza rejası:

1. Hindiy tili unli va undosh tovushlari.
2. Hindiy tili alifbosi
3. Hindiy tili fonetikasida ishlatiladigan belgilar.
4. Tinish belgilar.

Hindiy tili unli tovushlari. Qisqa va cho'ziq unlilar. Diftonglar. Qisqa va cho'ziq unlilarning so'z ma'nosiga ta'sir etish xususiyatlari.

Hindiy tili undosh tovushlari. Ularning talaffuz o'rnini va usuli jihatdan turlarga bo'linishi (klassifikatsiyasi). O'zbek tiliga mos j,q,h,f tovushlari. Nafas tovushlari va ularga mos sof undoshlar. Qereblar undoshlar. "N" undoshlarning turlicha ifodalanishi. "N" burun tovushi. Boshqa tillaridan kirib kelgan tovushlar.

Hindiy tili alifbosi-devanagari. Uning xususiyatlari. Tovushlarining talaffuzi o'rnini va usuli bo'yicha devanagari alifbosida joylashishi. Undoshlardan oldin va keyingi unlilarning belgilanishi. Unlilarning matralari. Undoshlarning qo'shib yozilishi-literatura. "Ra" harfining undoshlardan oldin va keyin yozilishi.

Viram-unlilarning yo'qligini bildiruvchi belgidir. Anusvara- "N" undoshini anglatuvchi belgidir. Qandrabindu - burun-dimog' (nazalizatsiya) unlisini anglatuvchi belgi. Visarga. Boshqa tillardan kirib kelgan q,g',h,f,e tovushlarini bildiruvchi harflar. Yopiq bug'inda "h"dan oldin "a"tovushi kelgan so'zlarning o'qilishi. So'z ohirida qisqa "a"tovushining talaffuz etilmasligi.

Tinish belgilari. Hindiy tilida raqamlar.

Ma'ruza bo'yicha savollar:

1. O'zbek va hindiy tili unli tovushlar tizimida qanday farqlar mavjud ?
2. O'zbek va hindiy tili undosh tovushlar tizimida qanday farqlar mavjud ?
3. O'zbek va hindiy tillari alifbosi tizimidagi farqlarni aniqlang.

II - MA'RUZA MORFOLOGIYA ASOSIY SO'Z TURQUMLARI. OT. SIFAT. SON. OLMOSH.

Ma'ruza rejasi:

1. Hindiy tilida otlar.
2. Hindiy tilida sifatlar.
3. Hindiy tilida sonlar.
4. Hindiy tilida olmoshlar.

Ot. Ikkita grammatik jisning mavjudligi. Son kategoriyasi. Birlik va ko'plik. Otlardan ko'plik yasash. Qo'plikni anglatuvchi lug'aviy ko'rsatgichlar ("log", "gan" so'zlari va h.k.).

Qelishik kategoriyasi. Bosh kelishik. Vositali kelishik. Vositali kelishik o'zagi. Qelishik anglatuvchi ko'makchilar (posleloglar). Murojat (atov)kelishigi. Sifat.

O'zgaruvchi va o'zgarmas sifatlar. Sifatlarning son, kelishik, jins o'zgarishi. Sifatlarning takror holda ishlatilishi va uning ma'nolari.

Sonlar. Sonoq sonlar. Tartib sonlar. Ularning jinsda va kelishikda o'zgarishi. Sonlarning takroriy ishlatilishi.

Olmosh. Olmoshlarning turlari: kishilik olmoshlarining ma'nolari. Quplikni bildiruvchi "log" ko'rsatkichining kishilik olmoshlari bilan ishlatilishi.

Qishilik va ko'rsatish olmoshlarining kuchaytirma shakllari.

Ma'ruza bo'yicha savollar:

1. Otlarda jins, son kelishik kategoriyalarini tavsiflab bering.
2. Sifatlar, ulrning turlari va anglatuvchi ma'nolarini tavsiflab bering.
3. Sonlar, ularning turlarini sanab bering.
4. Olmosh, ularning turlari va ma'nolarini ta'riflab bering.

III - MA'RUZA

MORFOLOGIYA. FE'L

Ma'ruza rejasi:

1. Fe'ning tuslanmaydigan shakllari.
2. Sifatdoshlar. Fe'ning notugal sifatdoshi.
3. Oddiy hozirgi zamon.
4. Oddiy o'tgan zamon.
5. Qelasi zamon fe'li.
6. Buyruq mayli.

Fe'ning tuslanmaydigan shakllari. Infinitiv. Infinitivning ort ko'makchilar (posleloglar) bilan ishlatilishi. Infinitivning inkor ma'nosi - " na " ioklamasi.

Fe'ning tub o'zagi ("likh", "kar"). Sodda va qo'shma fe'llar. O'timli va o'timsiz fe'llar.

Sifatdosh. Hozirgi zamon sifatdoshi. Hozirgi zamon sifatdoshining sonda va rodde o'zgarishi.

Fe'ning zamon va shahsda tuslanuvchi shakllari.

"Hona"-fe'lining hozirgi zamon oddiy shakllari (hun, hay, hay ho). "Hona" fe'lining o'tgan zamon oddiy shakllari (tha, the, thi, thin).

Oddiy hozirgi zamon fe'li.

O,H,Z,F.ning yasalishi. O,H,Z,F ma'nosi, ishlatilishi:

Shu zamonda ko'rsatgich sifatida ishlatiladigan so'zlar. Inkor so'zlari O,H,Z,F qisqa shakli (karta, karte, karti, kartin), "nahin"inkor so'zi bilan qisqa shaklining ishlatilishi. O,H,Z,F va "hona" fe'lining oddiy hozirgi zamon shaklini taqqoslash.

Oddiy o'tgan zamon fe'li.

Yasalish. O,O',Z,F ma'nosi, ishlatilishi: shu zamonda ishlatiladigan so'zlar. O,O',Z,F qisqa shakli. (karta, karte, karti, kartin). Inkori ma'nosini bildiruvchi so'zlar. O,H,Z,F va O,O',Z,F qisqa shakllarining farqi: O,H,Z,F da "nahin", oo'zf da esa "na" ishlatilishi.

Kelasi zamon fe'li.

Yasalishi (asosiy) Fe'ning o'zak-negiziga fe'ning shahs qo'shimchalarini qo'shib yasash. Rod, son va shahsda o'zgarishi, Q,Z,F ma'nosi, ishlatilishi. "Nahin" inkori so'zi.

Buyruq mayli.

Buyruq maylining umumiy hususiyatlari. Hindiy tilida buyruq maylining 4ta shakli va ularning ishlatilishi:

- a) asosiy fe'ning negiziga mos kelgan shakl: qar, likh;
- b) asosiy fe'ning negiziga "o" qo'shimchasini qushib yasalgan shakl: karo, likho.
- c) fe'ning negiziga kiya qo'shimchasini qushib yasash;
- d) fe'ning infinitiv bilan teng bo'lgan shakli. SHu shakllarning ma'nolari va ishlatish qoidalari. Buyruq maylining inkori shakllari (mat va na).

Ma'ruza bo'yicha savollar:

1. Fe'ning tuslanmaydigan shakllariga nimalar kiradi?
2. Oddiy hozirgi zamon fe'li anglatuvchi ma'nolarni sanab bering.
3. Oddiy o'tgan zamon fe'li anglatuvchi ma'nolarni ta'riflang.
4. Qelasi zamon fe'li qanday ma'nolarni anglatadi?
5. Hindiy va o'zbek tillarida buyruq mayli yasashida qanday farqlar bor?

IV - MA'RUZA YORDAMCHI SO'Z TURQUMLARI

Ma'ruza rejasi:

1. Ort ko'makchilar (posleloglar)
2. Yuklamalar.
3. Bog'lovchilar.

Yordamchi so'z turkumlari.

Qo'makchilar.(posleloglar). Ularning vazifasi. Oddiy ko'makchilar va ular ma'nosining tarjimasi. Murakkab ko'makchilar. Ularning yasalihi. Qo'shma ko'makchilar. Ularning yasalihi. Qo'shma ko'makchilarning tarjimasi.

Kuchaytiruvchi ioklamalar.

"Qia" so'rok ioklamasi. "ha va ji", tasdiq ioklamalari. Ularning ma'nosi. Inkori ioklamalari, "nahin, na, mat". Ularning tarjimada va ishlatishda farqi. Gapdagi o'rni. Quchaytiruvchi ioklamalar: bhi, to, tak, sa.

Bog'lovchilar va bog'lovchi so'zlar.

“agar” bog'lovchi va uning gapdagi o'rni. "jab" bog'lovchi so'z, uning ma'nosi va o'rni.

Ma'ruza bo'yicha savollar:

1. Ort ko'makchilarning turlarini tavsiflab bering.
2. Quchaytiruvchi yuklamalarning turlarini tavsiflang.
3. Bog'lovchi va bog'lovchi so'zlarning farqlarini aniqlang.

V - MA'RUZA

SINTAKSIS

ANIQLOVCHI, TO'LDIRUVCHI, HOL.

Ma'ruza rejasi:

1. Sodda yig'iq gap. Sodda yoyiq gap.
2. To'ldiruvchi va uning shakllari.
3. Hol. Uning turlari.
4. So'roq gaplar.
5. Qo'shma gaplar.

Sintaksis.

Sodda yig'iq gap, ega va kesimning o'rni. Sodda yoyiq gap. Gapda bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning o'rni. Aniqlovchi. Son. Olmosh. Infinitiv orqali ifodalanagan aniqlovchi. Aniqlovchining aniqlanish bilan moslashuvi. Bir aniqlamish so'zga tegishli ikki yoki undan ortiq bo'lgan aniqlanuvchining ishlatilish tartibi.

To'ldiruvchi.

Vositasiz to'ldiruvchi va uning gapdagi o'rni. Vositasiz to'ldiruvchining shakllari. Vositali to'ldiruvchi va uning gapdagi o'rni.

Hol.

Hayt, o'rin, ravish, maqsad, sabab holi va ularning gapdagi o'rni.

So'roq gaplar.

So'roq so'zlarning gapdagi o'rni. Mahsus va umumiy so'roqlarning ifodalanishi. Tasdiq va inkor gaplar. Inkor ioklamasining gapdagi o'rni. To'liq va qisqa javoblar. Tasdiq ioklamasining gapdagi o'rni.

Qo'shma gaplar.

Ergash qo'shma gap. Umumiy ma'lumotlar. "Жab" bog'lovchi ergash gap. Bosh va ergash gap. "Agar" bog'lovchi ergash gap. Bog'lovchining tushirib qoldirilish hollari.

Ma'ruza bo'yicha savollar:

1. Sodda gaplarning turlarini tavsiflang.
2. Aniqlovchi va ularning turlarini o'zbek tili bilan taqqoslang.
3. To'ldiruvchilarni o'zbek tili bilan taqqoslang.
4. Hol va uning turlarini tavsiflang.
5. Qo'shma gaplar va ularda gap bo'laklarining o'rnini tavsiflang.

VI - MA'RUZA
ODDIY KELASI ZAMON FE'LI
SHART ERGASH GAPLI QO'SHMA GAPLAR

Ma'ruza rejasi:

1. Oddiy kelasi zamon fe'lining yasalishi.
2. Oddiy kelasi zamonda anglatiladigan ish-harakatlar.
3. Oddiy kelasi zamon inkor shakli.
4. Shart ergash gaplarning yasalishi va anglatuvchi ma'nolari.

Oddiy kelasi zamon.

Oddiy kelasi zamon asosiy fe'lining o'zagiga quyidagi shahs qo'shimchalarini qo'shish bilan yasaladi.

	muzakkar		muannas	
shahs	birlik	ko'plik	birlik	ko'plik
1chi	- unga	- enge	- ungi	- engi
2chi	- ega	- oge	- egi	- aogi
3chi	- ega	- enge	- egi	- engi

“parhna” fe'lining oddiy kelasi zamonda tuslanishi

	muzakkar		muannas	
shahs	birlik	ko'plik	birlik	ko'plik
1chi	mae parhunga	ham parhenge	mae parhungi	ham parhengi
2chi	tu parhega	tum parhoge	tu parhegi	tum parhogi
3chi	ye parhega	ap parhenge	ye parhegi	ap parhengi
	vo parhega	ye parhenge	vo parhegi	ye parhengi
		ve parhenge		ve parhengi

Oddiy kelasi zamon fe'li kelgusida bajariladigan ish-harakatni bildiradi.

“Lena” va “dena” fe'llarining kelasi zamon shakli shahs qo'shimchalarini fe'l o'zagiga emas, balki bu fe'llarning birinchi harfiga qo'shish bilan hosil bo'ladi.

**“hona” fe’lining oddiy kelasi zamonda
tuslanishi**

muzakkar			muannas	
shahs	birlik	ko‘plik	birlik	ko‘plik
1chi	mae hunga	ham honge	mae hungi	ham honggi
2chi	tu hoga	tum hoge	tu hogi	tum hogi
		ap honge		ap honggi
3chi	ye, vo hoga	ye, ve honge	ye, vo hogi	ye, ve honggi

Oddiy kelasi zamon fe’lining inkor shakli “nahi” inkor yuklamasi yordamida yasaladi.

Shart ergash gapli ergashgan qo‘shma gap.

Shart ergash gapli ergashgan qo‘shma gapda ergash gap “agar” yoki “yadi” “agar” bog‘lovchisi bilan, bosh gap esa “to” yuklamasi bilan boshlanadi. Bosh gap ergash gapdan so‘ng keladi.

“agar” yoki “yadi” bog‘lovchisi tushirib qoldirilishi mumkin, ammo “to” yuklamasi hech qachon tushirib qoldirilmaydi.

Ma’ruza bo‘yicha savollar:

1. Oddiy kelasi zamon fe’li qanday yasaladi?
2. Oddiy kelasi zamon qanday ish-harakatni anglatadi?
3. Oddiy kelasi zamonning inkor shakli qanday yasaladi?

**VII - MA’RUZA
SODDA TUGAL SIFATDOSH
TUGAL O‘TGAN ZAMON**

Ma’ruza rejasi:

1. Sodda tugal sifatdoshning yasalishi
2. Sodda tugal sifatdoshning moslashuvi
3. Tugal o‘tgan zamonning yasalishi
4. Tugal o‘tgan zamonni anglatuvchi ish-harakat
5. Tugal o‘tgan zamonda ega bilan kesimning moslashuvi.

Sodda tugal sifatdosh.

Sodda tugal sifatdosh fe’l o‘zagiga “a” qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasaladi.

Fe’l o‘zagi unli harf bilan tugagan bo‘lsa, u holda “a” qo‘shimchasidan avval “y” harfi yoziladi.

Sodda tugal sifatdosh jins va sonda o‘zgaradi.

Beshta fe’lning sodda tugal sifatdoshi qoidadan mustasno ravishda yasaladi.

Bular quyidagilardir:

fe'lining
infinitiv
shakli

Sifatdosh

	muzakkar		muannas	
	birlik	ko'plik	birlik	ko'plik
karna	kiya	kiye	ki	ki
dena	diya	diye	di	di
lena	liya	liye	li	li
jana	gaya	gaye	gayi	gayi
hona	hua	hue	hui	hui

Tugal o'tgan zamon

Tugal o'tgan zamon shakl jihatdan asosiy fe'ning sodda tugal sifatdoshiga mos keladi.

1. Tugal o'tgan zamon, o'tgan zamonda bir marta bo'lib o'tgan va tugallangan ish-harakatni bildiradi.

2. Ikki yoki undan ortiq bir marta va ketma-ket bo'lib o'tgan ish-harakatni anglatishi mumkin.

3. U o'tgan zamonda takrorlangan yoki uzoq davom etgan va tugal ish-harakatni anglatishi ham mumkin. Tugal ish-harakatning takrorlanganligi yoki davomlilik sara din - kun bo'yi, der tak - ancha vaqt, kai bar - bir necha marta va h.k.z. bilan ifodalanadi.

Qesimning ega bilan moslashuvi uning o'timli yoki o'timsiz fe'l bilan ifodalanganiga qarab turlicha amalga oshiriladi.

1. Agar kesim o'timsiz fe'l bilan ifodalangan bo'lsa, u ega bilan jins va sonda moslashadi.

Gapda kesim ega bilan moslashadigan tuzilma sub'ektli tuzilma deb ataladi.

2. Agar kesim o'timli fe'l bilan ifodalangan bo'lsa, egadan so'ng "ne" ort ko'makchisi qo'yiladi va kesim ega bilan moslashmaydi. Agar gapda vositasiz to'ldiruvchi bo'lmasa yoki bo'lsa-yu, "ko" ort ko'makchisi bilan kelgan bo'lsa, u holda kesim neytral shaklda - birlik, muzakkar jinsida.

3. Agar kesim o'timli fe'l bilan ifodalangan bo'lib, gapda vositasiz to'ldiruvchi bo'lsa, u holda egadan so'ng "ne" ort ko'makchisi qo'yiladi va kesim vositasiz to'ldiruvchi bilan jins va sonda moslashadi.

Qesim vositasiz to'ldiruvchi bilan ya'ni ob'ekt bilan moslashadigan tuzilma ob'ektli tuzilma deb ataladi.

Inkor shakli "nahi" yoki "na" inkor yuklamalari vositasida yasaladi:

Hindiy tilida samajhna - tushunmoq, lana - olib kelmoq, bolna gapirmoq, bhulna - unutmok kabi fe'llar o'timsiz fe'llar hisoblanadi.

"mae, tu, ham, tum" va "ap" kishilik olmoshlari "ne" ort ko'makchisidan oldin o'zgarmaydi qoladi.

“ye, vo, ye ” va “ve” kishilik olmoshlari ne ort ko‘makchisidan avval o‘z shaklini o‘zgartiradi. M-n:

ye—isne ye—inho ne
vo—usne ve—unho ne

“ka^on” so‘roq olmoshi “ne” ort ko‘makchisidan avval kelganda, birlikda “kis” va ko‘plikda “kinho” shakllarini oladi. M-n:

ye kisne kaha? - Buni kim aytdi?
ye kinho ne kaha? - Buni kim /lar/ yozdi?

Kesimlarning ega bilan moslashishi

Gapda bitta ega va tugal o‘tgan zamonda o‘timli va o‘timsiz fe’llar bilan ifodalangan ikki yoki undan ortiq kesim ishtirok etgan bo‘lishi mumkin.

Agar birinchi kesim o‘timli fe’l bilan, keyingisi - o‘timsiz fe’l bilan ifodalangan bo‘lsa, u holda ega “ne” ort ko‘makchisi bilan keladi va birinchi kesim u bilan moslashmaydi, ikkinchi kesim esa ega bilan moslashadi. M-n:

larke ne ye bat kahi a^or kamre se nikla

Agar birinchi kesim o‘timsiz fe’l bilan ikkinchisi - o‘timli fe’l bilan ifodalangan bo‘lsa, ega vositasiz kelishikda keladi va birinchi kesim u bilan moslashadi, ikkinchi kesim esa moslashmaydi. M-n:

larki andr ayi a^or kaha : “malum hua ki aj barf paregi”

Ular uyga qaytib kelishdi, ovqatlanishdi va shug‘ullanishga o‘tirishdi.

Ma’ruza bo‘yicha savollar:

1. Sodda tugal sifatdosh qanday yasaladi ?
2. Tugal o‘tgan zamon qanday yasaladi ?
3. Tugal o‘tgan zamon qanday ish-harakatlarni anglatadi ?
4. Tugal o‘tgan zamonda eganing moslashuvi qanday bo‘ladi ?

VIII - MA’RUZA TUGAL HOZIRGI ZAMON

Ma’ruza rejasi:

1. Tugal hozirgi zamonning yasalishi.
2. Tugal hozirgi zamon anglatuvchi ma’nolar.
3. Tugal hozirgi zamonning inkor shakli.

Tugal hozirgi zamon

Tugal hozirgi zamon yetakchi fe’lning sodda tugal sifatdoshiga “hona” fe’lining hozirgi zamon sodda shaklini qo‘shish bilan yasaladi.

Hozirgi tugal zamon ish-harakatning o‘tgan zamonda bo‘lib tugallanganligini va uning natijasi so‘zlashilayotgan paytda mavjud yoki dolzarb ekanligi bildiradi.

o'tgan zamonda bo'lib o'tgan ish-harakatning natijasi hozirgi payt bilan boglikligi nazarda tutiladi.

o'timsiz fe'l bilan ifodalangan kesim ega bilan jins, son va shahsda moslashadi.

o'timli fe'l bilan ifodalangan kesim vositasiz to'ldiruvchi bilan moslashadi hamda ega "ne" ort ko'makchisi bilan keladi.

Vositasiz to'ldiruvchi "ko" ort ko'makchisi bilan kelsa, yoki umuman mavjud bo'lmasa, kesim neytral shaklda olinadi.

"Ma'lum bo'lishicha, olingan habarga ko'ra, gazetaning yozishicha" va boshqa shu kabi iboralar hindiy tilida hozirgi tugallangan zamonda beriladi.

Hozirgi tugallangan zamonning inkor shakli "nafi" inkor yuklamasi yordamida yasaladi.

"Milna" fe'lining hususiyatlari.

"milna" fe'li utimsiz bulib, bir kancha ma'nolarni anglatadi.

a binoan "uchrashish" ma'nosida kelganda to'ldiruvchi "se" ort ko'makchisi bilan ishlatiladi, "biror shahs bilan to'satdan, tasodifan uchrashish" ma'nosida kelganida to'ldiruvchi ko'makchisi bilan ishlatiladi.

3. "milna" fe'lidan yasalgan "milkar" ravishdoshi "birga", "birgalikda" degan ma'nolarni bildiradi.

Ma'ruza bo'yicha savollar:

1. Tugal hozirgi zamon qanday yasaladi?
2. Tugal hozirgi zamon qanday ma'nolarni anglatadi?
3. Tugal hozirgi zamonning inkor shakli qanday yasaladi?

IX - MA'RUZA UZOQ O'TGAN ZAMON

Ma'ruza rejasi:

1. Uzoq o'tgan zamonning yasalihi.
2. Uzoq o'tgan zamon anglatuvchi ma'nolar.
3. Uzoq o'tgan zamonning inkor shakli.

Uzoq o'tgan zamon fe'li yetakchi fe'lining sodda tugallangan sifatdosliga "hona" fe'lining o'tgan zamon sodda shaklini qo'shish bilan yasaladi.

Uzoq o'tgan zamon fe'li o'tgan zamonda bajarilgan va tugagan ish-harakatni bildirib, bu ish-harakat tamom bo'lganidan so'ng ma'lum bir vaqt o'tganligini yoki boshqa ish-harakat yuz berganligini ko'rsatadi.

Uzoq o'tgan zamonda ifodalangan ish-harakat o'tgan yili, o'tgan oy, hafta, kecha, hatto bugun ertalab bajarilgan bo'lishi ham mumkin, agar gap bugun kunduzi yoki kechqurun aytilayotgan bo'lsa.

Payt holi ish-harakatni aniqlash uchun har doim ham qo'lanilavermaydi, bunday hollarda fe'l shaklining o'zi ish-harakatni uzoq o'tgan zamonda sodir bo'lganligini ko'rsatadi.

Uzoq o'tgan zamon biror ish-harakatning boshqa ish-harakatdan avval bajarilganini ifodalash uchun ham ishlatiladi.

Uzoq o'tgan zamon o'tgan zamonda bo'lgan ikki yoki undan ortiq ketma-ket kelgan yoki bir vaqtda bajarilgan ish-harakatni ham anglatishi mumkin.

Uzoq o'tgan zamon fe'lining inkor shakli "na" va "nahi" inkor yuklamasi yordamida ifodalanadi. U ish-harakatni o'tmishda umuman bajarilmaganini yoki o'tmishda qandaydir paytga qadar hali sodir bo'lmaganini bildiradi.

Uzoq o'tgan zamonda ham kesim o'timli yoki o'timsiz fe'l bilan ifodalanganligiga qarab ega va kesim moslashuvi turlicha bo'ladi.

O'timsiz fe'l bilan ifodalangan kesim ega bilan jins va sonda moslashadi.

Qesim o'timli fe'l bilan ifodalangan bo'lsa, egadan so'ng "ne" ort ko'makchisi qo'yiladi, agar vositasiz to'ldiruvchi bo'lsa, kesim u bilan jins va sonda moslashadi.

Gapda vositasiz to'ldiruvchi bo'lmasa yoki u "ko" ort ko'makchisi bilan kelgan bo'lsa, kesim neytral shaklda - muzakkar jinsida birlikda keladi.

Ma'ruza bo'yicha savollar:

1. Uzoq o'tgan zamon qanday yasaladi?
2. Uzoq o'tgan zamon qanday ma'nolarni anglatadi?
3. Uzoq o'tgan zamonning inkor shakli qanday yasaladi?

X - MA'RUZA DAVOMLI SIFATDOSH PROSESSIV SIFATDOSH. HOZIRGI ZAMON DAVOM FE'LI O'TGAN ZAMON DAVOM FE'LI

Ma'ruza rejasi:

1. Davomli sifatdoshlarning yasalishi.
2. Hozirgi zamon davom fe'lining yasalishi.
3. O'tgan zamon davom fe'lining yasalishi.
4. Hozirgi zamon davom fe'li va o'tgan zamon davom fe'li ma'nolaridagi farqlar.

Davomli sifatdosh

Davomli sifatdosh asosiy fe'lining o'zagiga "rehna" fe'lining sodda tugallangan sifatdoshini qo'shish bilan yasaladi. Davomli sifatdosh jins va sonda o'zgaradi.

Hozirgi zamon davom fe'li.

Hozirgi zamon davom fe'li asosiy fe'lining davomli sifatdoshiga "hona" fe'lining hozirgi zamon sodda shaklini qo'shish bilan yasaladi.

Hozirgi zamon davom fe'li so'zlashuv paytida sodir bo'layotgan ish-harakatni anglatadi.

Hozirgi zamon davom fe'li avval boshlanib, so'zlashuv paytida davom etayotgan ish-harakatni ham bildirishi mumkin.

Hozirgi zamon davom fe'li yaqin kelajakda bajariladigan ish-harakatni ham anglatishi mumkin.

Hozirgi zamon davom fe'lining inkor shakli "nahi" inkor yuklamasi orqali yasaladi.

O'tgan zamon davom fe'li.

O'tgan 258 sifatdoshiga "hona" fe'lining o'tgan zamon sodda shaklini qo'shish bilan yasaladi.

O'tgan zamon davom fe'li o'tmishning ma'lum bir vaqtida sodir bo'layotgan ish-harakatni bildiradi.

O'tgan zamon davom fe'li o'tmishning ma'lum bir paytida bir yo'la sodir bo'layotgan ikkita ish-harakatni ham bildirishi mumkin.

Ma'ruza bo'yicha savollar:

1. Davomli sifatdoshlarning ma'no jihatidan boshqa sifatdoshlardan farqlari nima?
2. Hozirgi zamon davom fe'li qanday yasaladi?
3. O'tgan zamon davom fe'li qanday yasaladi?
4. Davomli fe'llar nimani angaltadi?